



**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.**

1. Imloviy jihatdan **to'g'ri** yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) landavur, mardonavor, afvnoma
- B) fidoiy, poyandoz, qatag'on
- C) tasavvuf, yaxshiy, shoshqaloq
- D) to'g'anoq, poyonsiz, mudarris

2. Qaysi javobdagi gapda **qattiq** so'zi "**mahkam, mustahkam, pishiq**" ma'nolarida qo'llangan?

- A) Tushdan keyin do'stiga yuzlandi:  
"Qattiq ishlab yubordik, shekilli, o'rnimdan tura olmayapman".
- B) Kasalning qattiq isitmasi chiqdi, unga nisbatan qilingan barcha dori-darmon vositalari bekor ketdi.
- C) "Loy yaxshi qorilsa, undan tayyorlanadigan mahsulotlar ham qattiq bo'ladi", – deb shogirdlariga tushuntirib turgan ekan.
- D) Kechki payt yog'a boshlagan yomg'ir yarim kechaga borganda chaqmoq, momaqaldiraq aralash qattiq quydi.

3. O'lmas Umarbekovning "**Qiyomat qarz**" hikoyasidagi **Sarsonboy ota** obraziga **to'g'ri** ta'rif berilgan javobni aniqlang.

- A) Farzandsizlik azobida butun umr yashagan inson.
- B) Birovning haqiga xiyonat qilmaydigan chin inson.
- C) Urush tufayli barcha boyligidan ayrilgan inson.
- D) O'g'linining urushdan qaytib kelishini butun umr kutgan ota.

4. Berilgan gapda ishtirok etgan ko'makchi qanday **mazmuniy munosabat** ifodalagan?

*U qisq ko'zlari bilan dengiz ufqiga boqar ekan, shodligini yashirolmadi.*

- A) birgalik ma'nosi
- B) vosita ma'nosi
- C) holat ma'nosi
- D) sabab munosabati

5. *Bo'rining bo'g'ziga suyak tiqilib qoldi-yu, joni ko'ziga ko'rinib, yordam istab yugurgilab qoldi. Baxtini qarangki, laylakka duch keldi: suyakni chiqarib tashlasang, mukofotlayman, deya va'dalar berib yordam so'radi. Laylak tumshug'i-yu boshini bo'rining bo'g'zigacha tiqib, arang suyakni chiqarib oldi-da, va'da qilingan mukofotni talab qildi. Bo'ri bunga javoban dedi: "Ha, azizim, bo'rining og'zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!"*

Ezopning "Bo'ri bilan laylak" masalidan olingan parchada alohida ajratib ko'rsatilgan **bo'rining** jumlasini orqali qanday **mazmun ifodalangan?**

- A) Ayrim badfe'l kishilar yomonlik qilmaganlarining o'ziniyoq yaxshilik qilganga yo'yishlari tanqid qilingan.
- B) Ayrim insonlar o'ziga yaxshilik qilgan insonga yaxshilik bilan javob qaytarmasligi tanqid qilingan.
- C) Ayrim kishilarning qilgan hiylanayrangi o'z boshiga kulfat keltirishi bayon etilgan.
- D) Ayrim odamlarning hasadgo'yiligi, qo'lidan kelmaydigan ishga urinishi tanqid ostiga olingan.






6. Qaysi javobdagi gapda –**kash** qo‘shimchasi **ijobiy** mazmundagi **sifatni** yasashga xizmat qilgan?
- A) *Tuyakashlar arabcha gaplashishar, afsuski, men bu tilni hech tushunmas edim.*
- B) *Yuk orqalagan, og‘ir qoplar ostida ikki bukilgan aravakashlar ko‘rinar edi.*
- C) *“Pastkash insonning birinchi sifati o‘z ahlini qizg‘onmaydiganlardir”, – deb turgan ekan.*
- D) *Bizni xonaga chaqirishdi, ichimizda eng mehnatkash inson sifatida meni tanlashdi.*
7. Qaysi javobda **bog‘lovchisiz qo‘shma gap** berilgan.
- A) *Mehnat qilsang, rohat topasan.*
- B) *Bolalar kuylashdi, qizlar esa tashqarida konsert tomosha qilishdi.*
- C) *Ishqqa tushding – o‘tga tushding.*
- D) *Qushlar pastlab, balandlab – har xil uchardi.*
8. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi **Farhod** obrazi haqida **xato** ma‘lumot berilgan javobni aniqlang.
- A) *U ta‘limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur‘oni karimni yod oldi.*
- B) *U qurilish sohasidagi hunarlarni ustozlari darajasida o‘zlashtiradi, hatto ba‘zisidan o‘zib ham ketadi.*
- C) *Otasining mamlakatni boshqarish taklifini rad etib, davlat boshqaruvini o‘rganishi kerak ekanini ta‘kidlaydi.*
- D) *Qanchalik kuchli shaxs bo‘lmasin, tog‘ga suv chiqarish mashaqqatini uddalay olmaydi.*
9. Qaysi javobda **qaratqich** kelishigining **belgisiz** qo‘llanishi kuzatilgan?
- A) *Yordamingni doim yaxshilarga qil, Yaxshiga yaxshilik yaxshi, buni bil.*
- B) *Yaxshi va yomon ham qolmadi mudom, Yaxshisi, olib ket bundan yaxshi nom.*
- C) *Yaxshi insonlar gapiga quloq sol, Hayotda icharsan, faqat shirin bol.*
- D) *Yaxshini eslamoq buyuk fazilat, Uning ilmin egallasang, bu ham saodat.*
10. “**Alpomish**” dostonining voqealari **to‘g‘ri** berilgan javobni aniqlang.
- A) *Qorajon Oybarchinga bo‘lgan muhabbati tufayli o‘z akalari bilan kurash olib boradi.*
- B) *Qaldirg‘ochoyim Alpomishning qalmoq yurtiga borishiga to‘sqinlik qiladi.*
- C) *Ko‘kaldosh qanchalik kuchli bo‘lmasin, oxir-oqibat Alpomishga mag‘lub bo‘ladi.*
- D) *Boybo‘ri Alpomishning or-nomusi uchun uning qalmoq yurtiga borishiga rozi bo‘ladi.*
- 2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.**
11. Quyidagi gapda ishtirok etgan **sintaksis birliklarni** aniqlang.
- Jamiyat uchun eng xavfli bo‘lgan illatlar (u yolg‘onchilik bo‘ladimi, u ilmsizlik bo‘ladimi – farqi yo‘q)ni yo‘qotish uchun ayollar – millat onalari ma‘rifatli bo‘lishi lozim.*
- A) *uyushiq bo‘lak va kiritma*
- B) *ajratilgan bo‘lak va undalma*
- C) *kiritma va ajratilgan bo‘lak*
- D) *to‘liqsiz gap va so‘z-gap*




12. O'zaro **ma'nodoshlik** hosil qila oladigan so'zlarni aniqlang.


A)




B)



C)



D)



13. Anton Pavlovich Chexovning "**Xameleon**" hikoyasi haqida **to'g'ri** ma'lumot berilgan javobni aniqlang.

- A) Asarda ikkiyuzlamachi insonlarning xatti-harakatlari tasvirlangan.
- B) Asarda mansabga o'ch insonlarning ruhiyatidagi muammolar bayon etilgan.
- C) Asarda hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lgan insonlarning qismati haqida so'z borgan.
- D) Asarda fuqarolarning arz-dodini eshitmayotgan amaldorlarning fojiasi tavirlangan.

14. Fonetik hodisalarning **barcha turi** yuz bergan javobni aniqlang.

- A) *Dimog'iga urilgan achchiq hiddan seskandi, o'rnidan turib qarasa, u pishirgangan ovqat kuyib yotgan edi.*
- B) *Doimiy ravishda takrorlab turilmagan ilm o'zining qiymatini asta yoqotib boradi, bundan to'g'ri xulosa chiqaring, o'g'lim!*
- C) *Ehtiyotsizligi tufayli sindirgan oynaning badalini endi kim to'laydi, yeyilmagan somsaga pul to'lash qanchalik alamli ekanini u bilmasdi.*
- D) *Ikki olamda qadr topishni xohlasang, avvalo, ota-onangga yaxshilik qil, undan-bundan gapirib ko'nglini ol, shunda saodatga erishasan.*

15. Shukur Xolmirzayevning "**Ot egasi**" asari haqida berilgan **xato hukmni** aniqlang.

- A) *Insonning o'tmishga, qadriyatlarga, insoniylikka bo'lgan sadoqati va sobitligi ulug'langan.*
- B) *Hukumat qonunlarini ro'kach qilib o'z qishloqdoshini qadrlı otidan judo qilgan leytenantning qilmishlari qoralangan.*
- C) *Leytenantdan alaminı olish uchun o'z otini o'ldirgan va uyidan bosh olib chiqib ketgan obraz tasvirlangan.*
- D) *Asarda ayanchli taqdiri tufayli oilasidan ayrilgan qahramon iztiroblari tasvirlangan.*

16. O'zaro **ma'nodosh iboralar** juftligi berilgan javobni aniqlang.

- A) *aqli yetdi – aqlini tanidi*
- B) *bahri ochildi – bahridan o'tdi*
- C) *boshi aylandi – bosh ko'tardi*
- D) *jon-poni chiqib ketdi – esi chiqib ketdi*



17. Abdulla Qahhorning “**Bemor**”

hikoyasidan olingan parcha orqali qanday **mazmun** ifodalanganini aniqlang.

*Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyogqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:*

– Devonai Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?

- A) Yordam bera olsa-da, lekin xasisligi tufayli yordam qo'lini cho'zmagan insonlar qoralangan.
- B) Tibbiyot rivojlangan bo'lsa-da, lekin insonlar bid'at va xurofotga ruju qo'ygani qoralangan.
- C) Oq poshsho xalq uchun sharoitlarni yaratgan bo'lsa-da, undan unumli foydalanmagan insonlar qoralangan.
- D) Noto'g'ri siyosat tufayli o'z davrining mashhur tabiblari ham erkin faoliyat yurita olmaganini ifodalangan.

18. Quyidagi gapda alohida ajratib ko'rsatilgan so'zning **bog'lanishi** haqidagi **to'g'ri hukmni** aniqlang.

*Ayollarning juda ko'p kitob o'qishi, kelajak avlod uchun, albatta, o'z foydasini beradi.*

- A) Hokim qismga kelishik yordamida bo'g'langan.
- B) Hokim qismga kelishik va ko'makchilarsiz bog'langan.
- C) Hokim qismga ko'makchi yordamida bog'langan.
- D) Teng bog'lanish (so'z qo'shilmasi)ni yuzaga chiqargan.

19. Quyidagi gapda qatnashgan olmoshlar haqidagi **to'g'ri hukmni** aniqlang.

*Terimchilar orasidan birov ko'rindi-da, fikrini dadil o'rtaga tashladi:*

*“Qishloqdoshlar, hamma yaxshi sharoitlarda ishlashga haqli, bunga toqat qilmasligimiz zarur, har yili bunday davom etishiga yo'l qo'ya olmaymiz, narxni oshirishsin”.*

- A) Olmoshning tuzilishiga ko'ra faqat ikki turi ishtirok etgan.
- B) Ta'kidlash, ma'noni kuchaytirish vazifasida qo'llangan olmosh(lar) qatnashgan.
- C) Olmoshning to'rt ma'no turi ishtirok etgan.
- D) Olmoshlar bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajargan.

20. Muhammadsharif Gulxaniyning

“**Zarbulmasal**” asaridan olingan quyidagi naql haqida **to'g'ri ma'lumot** berilgan javobni aniqlang.

*...bir odam yaxshi ko'rgan to'ppisini tez suvga oqizib, harchand taraddud bila ololmadi. Mahrum bo'lub qaytur erdiki: – Yo'qolg'oni ham xo'b bo'ldi, boshimg'a ham tor kelur erdi, – deb.*

- A) Har qanday sharoitda ham o'z aqli bilan yo'l tutadigan insonlar tasvirlangan.
- B) Har qanday kulfatda ham ruhiy tushkunlikka tushmaydigan insonlar tasvirlangan.
- C) Ayb o'zida bo'la turib, birovlarini ayblaydigan insonlar qoralangan.
- D) O'z xatosidan kerakli xulosa chiqarmaydigan insonlar tanqid ostiga olingan.

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.**

21. Qaysi javobdagi gapda **tire** tinish belgisi bilan bog'liq punktuatsion **xatolik** yuzaga kelgan?

- A) Erkin Vohidov badiiyat xazinamizga latif tuhfası – "So'z latofati"da shunday deydi: "Til millatning bosh belgisi hisoblanadi.
- B) Ey ko'zimning qorasi, odamlar bilan murosı-yu madoraga kirishish ham, yaxshi muomala qilish ham – hammasi savobli amaldır, buni unutma.
- C) Katta jamoaning ko'p yillik qilgan mehnati – besh jildli izohli lug'atning nashr etilgani el ma'rifati uchun foydali bo'ldi.
- D) Ma'naviyat – insonni ruhan poklanishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini boyitadigan beqiyos kuchdır.

22. Shavkat Rahmonning "**Turkiylar**" she'ridan olingan quyidagi parcha haqida **to'g'ri tahlil** berilgan javobni aniqlang.

*Mo'minlar besh bora Allohni eslar,  
Sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.  
O'g'rib sal ortga qarayin desa,  
boshiga urarlar,  
faqat boshiga...*

- A) Dinni mahkam tutgan, lekin dushmanga bosh eggan qavm tanqid qilingan.
- B) Dindan uzoqlashgan qavmning dushman qo'lida mazlum bo'lgani tasvirlangan.
- C) O'z boyliklaridan judo etilgan qavmning iztiroblari bayon etilgan.
- D) O'z yurtidan quvilgan qavmning kulfati bayon etilgan.

23. Quyidagi gapda qatnashgan fe'llar haqida **xato hukm** berilgan javobni aniqlang.

*Hamid Sodiq tomonidan tarjima qilinayotgan asarlar orqali jamiyatning siyosiy ongini uyg'otish maqsad qilingan, buni anglab yetgan inson esa hozirdan kitobni qo'lga oladi va mutolaa qiladi.*

- A) Fe'lning o'timli va o'timsiz shakllari ishtirok etgan.
- B) Fe'lning tuzilishiga ko'ra faqat ikki turi ishtirok etgan.
- C) Yasama fe'llarni faqat qo'shma fe'llar yuzaga chiqargan.
- D) Fe'lning vazifa shakliga ko'ra faqat uch turi ishtirok etgan.

24. Sa'diy She'roziyning "**Bo'ston**" asaridan olingan quyidagi parcha **to'g'ri tahlil** qilingan javobni aniqlang.

*Eshitdim, adolatli bir podsho  
Kiyarkan astar-u avra bo'z qabo.  
Biri debdi: "Shohim, to'ning juda jo'n,  
Xitoyi shohidan tiktir yaxshi to'n!"  
Debdi: Bul kiyimda tanga osoyish,  
Bundan ortig'idir zeb-u oroyish...  
Mening boshimda ham yuz-yuzlab havas,  
Lekin g'azna tanho meniki emas.  
Qo'shunlar haqidır boylig-u gavhar,  
Shoh ziynati uchun emas siym-u zar.*

- A) Parchada adolatsiz podshohning xalqqa qilgan zulmlari tasvirlangan.
- B) Parchada o'z podshohiga boshboshdoqlik qilgan askarlar tasvirlangan.
- C) Parchada xalqining mulkiga xiyonat qilmaydigan podshoh tasvirlangan.
- D) Parchada podshohning boyligi ko'paysa, u qudratli bo'lishi bayon etilgan.



25. Quyidagi gap haqida **xato hukm** berilgan javobni aniqlang.

*Kampir javob bo'lmaganidan hayron bo'ldi, shekilli, yuqoridan ehtiyotkorlik bilan pastga tushdi, uni qizi kutib oldi.*

- A) Sabab holi fe'l kesimga tobelangan.
- B) Vositasiz to'ldiruvchi fe'l kesimga tobelangan.
- C) Ravish holi fe'l kesimga tobelangan.
- D) Vositali to'ldiruvchi fe'l kesimga tobelangan.

26. Quyidagi parcha haqida **to'g'ri hukm** berilgan javobni aniqlang.

*Bazl hayvonvashlar ilgidin gar istar ko'ngul, O'yladurkim, orzu qilg'ay bug'u shoxida gul.*

**Lug'at:** bazl – in'om, ehson, hadya; saxiylik.

- A) Parchada isrof garchilikka yo'l qo'yadigan insonlar hayvonga o'xshatilgan.
- B) Parchada ba'zi hayvonsifat insonlarning ehson qilmasligi qoralangan.
- C) Parchada bug'u shoxi gulistonda o'sgan gulga qiyoslangan.
- D) Parchada saxovat tufayli bug'u shoxi gullarga aylanishi mubolag'a qilingan.

27. Jadval asosida asarlar va ularga mos ma'lumotlarni **muvofiglashtiring**.

| Asarlar                                                      | Asarlar haqida ma'lumotlar                                                      |
|--------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1) "Sobiq" hikoyasi<br>(Said Ahmad)                          | a) Qatag'on siyosatining butun dahshati ochib berilgan.                         |
| 2) "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi<br>(O'tkir Hoshimov) | b) Ilmsizlik ortidan butun jamiyat parokanda bo'lgani tasvirlangan.             |
| 3) "Muzqaymoq" hikoyasi<br>(Odil Yoqubov)                    | c) Mamlakatdagi dabdababozlik hajv qilingan va qoralangan.                      |
|                                                              | d) Urushning kulfati oddiy insonlarga nechog'liq ta'sir etgani tasvirlangan.    |
|                                                              | e) Insoniyat va hayvonot olami bir-biriga qanchalik bog'liq ekani tasvirlangan. |

- A) 1-b 2-d 3-a      B) 1-e 2-c 3-b      C) 1-c 2-d 3-a      D) 1-c 2-b 3-a





Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

### PINGVINLAR

Pingvinlar – suvda yashashga moslashgan, uchmaydigan qushlar bo'lib, faqat Janubiy yarimsharda, ayniqsa Antarktida qit'asida yashaydi. [1]*Ular qisqa bo'yli, oq-qora tusdagi qushlar sanaladi.* Pingvinlar qanotlarini suvda suzishda qo'llaydi va suvda ajoyib tezlikka erishishlari mumkin.

Pingvinlar suv ostida ov qilish jarayonida sezgir ko'zlaridan foydalanib, ozuqani aniqlashadi. Pingvinlarning turli xil turlari mavjud bo'lib, ulardan eng yirik turi imperator pingvinlari hisoblanadi. [2]*Imperator pingvinlari balandligi 1, 2 metrga yetadi.*

[3]*Pingvinlar birgalikda yashash orqali sovuqdan himoya topishadi.* Pingvinlarning ozuqasi asosan baliqlar va boshqa dengiz organizmlaridan iborat. [4]*Ular uchmaydigan qushlar sirasiga kiradi.* Pingvinlar biologik xilma-xillikning qadrlı qismi sanalib, ularni himoya qilish bugungi kunda ekologik zarurat hisoblanadi.

28. Matn mazmuniga mos **to'g'ri ma'lumot** berilgan javobni aniqlang.

- A) Yer yuzidagi barcha pingvinlar qisqa bo'yli pingvinlar hisoblanadi.
- B) Pingvinlarning dengiz suvo'tlari bilan oziqlanishi fanga ma'lum.
- C) Pingvinlarni Yer yuzning barcha hududlarida uchratish mumkin.
- D) Pingvinlarning suzishida ularning qanotlari muhim ahamiyatga ega.

29. Qaysi raqamda ajratib ko'rsatilgan gap **fikr takrori** orqali matnning mazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikni** yuzaga chiqargan?

- A) 1      B) 2      C) 3      D) 4

30. Matn mazmunida **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

- A) Pingvinlardagi teri tuzilishi ularni sovuqdan himoya qiladi.
- B) Pingvinlarda jamoaviy yashash muhiti shakllangan.
- C) Pingvin go'shtidan konserva mahsulotlari tayyorlash yo'lga qo'yilgan.
- D) Imperator pingvinlarida ko'rish qobiliyati yaxshi rivojlangan.

